MASOFAVIY TA'LIM AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI.

Murodova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti dotsenti
Kamolova Mahliyo Hasanovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti stajyor-o'qituvchisi
E-mail: mahliyo.kamolova.86@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada masofadan turib o'qish va undan keng miqiyosida ma'lumot olish, Onlayn hamda erkin tadqiqotchilar va izlanuvchilar o'z yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarning fanni chuqurroq o'rganishiga, olingan natijalarning amaliy ahamiyatlari ochib berilgan. Maqolada turli fanlardan talabalar bilimini oshirish, darslarni onlayn tashkil etish orqali hozirgi zamon talablariga mos ravishda MOOCdan foydalangan holda amalga oshirishning amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan.Onlyn kurslar, platformalar, ularning yutuq va kamchiliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: MOCC, onlayn-kurs, ommaviy ta'lim, content, internet, sun'iy intellect, samaradorlik, masofaviy ta'lim.

Annotation: The article reveals the practical significance of the results obtained by studying at a distance and obtaining information from it in a wide range, online and free researchers and researchers to a deeper study of the science of students studying in their direction. The article scientifically substantiates the practical importance of improving student knowledge from various disciplines, implementing classes using the MOOC in accordance with the requirements of the present time by organizing them online.Onlyn talks about courses, platforms, their achievements and disadvantages.

Keywords: MOCC, online course, mass education, content, internet, artificial intellect, efficiency, distance learning.

Аннотация: В статье раскрыта практическая значимость полученных результатов для дистанционного обучения и получения из них широкого спектра знаний, как онлайн, так и внештатных исследователей и соискателей, способствующих более глубокому изучению предмета студентами, обучающимися по их направлению. В статье научно обоснована практическая значимость повышения знаний учащихся по различным предметам, внедрения МООК в соответствии с современными требованиями путем организации занятий онлайн.Речь идет об онлайн-курсах, платформах, их достоинствах и недостатках.

Ключевые слова: MOCC, онлайн-курс, массовое образование, контент, интернет, искусственный интеллект, эффективность, дистанционное обучение.

ISSN 3030-3907

Kirish

Ta’limda onlayn o‘qitish tizimi bizga kuni kecha kirib kelgan yangilik emas. Ochiq internet onlayn kurslar 2000 yillarda paydo bo`ldi va bu bilan o‘z davring dunyoga mashxur,reytingi yuqori universitetlari tinglovchilarga o‘z maruzalarini bepul tinglash imkoniyatini taqdim etdi. Bu kabi ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talab yuqori bo‘lganligi sababli MOOC nomli mutlaqo yangi ta’lim berish metodikasi shakllandi. Bu atama 2008 yilda Devid Kormier (University of Prince Edvard Island) Brayan Aleksandr (Netional Institute for Technology in Liberal Education) tomonidan o‘ylab topilgan edi. MOOC- onlayn ta’lim bozorini rivojlantirish xamda turli pedagogik va biznes vazifalarini xal etishda karatilgan zamonaviy masofaviy ta’lim tizimi. MOOC ing. Messive Open Onlayn Course) yoki Ommaviy ochiq Onlayn Kurs kengaytmasidan tashkil topgan.

Messive- geografik joylashuvi va o‘rnidan qat’iy nazar chegeralanmagan xolda ko‘p sonli bilim oluvchilarni ommaviy ravishda qamrab oladi va o‘qitadi.

Open- barcha uquvchilar uchun ochik va bepul ta’lim olish imkoniyatini beradi. Ochiklikning asosiy sifati kurs uchun bepul ro‘yxatdan o‘tish, ro‘yxatdan o‘tganlar uchun esa cheksiz kontent, ta’lim natijalariga erishishning bepul imkoniyatlari taqdim etiladi.

Onlayn- masofaviy ta’lim onlayn aloqa vositalari yordamida olib boriladi va barcha materiallar elektron shaklda takdim etiladi. Bu esa ushbu metodning texnik xususiyatlarini ochib beradi, ya’ni kurs internet orqali uzatiladi. O‘quv jarayoning barcha ishtirokchilari bilan tarmoqning uzaro ta’sirini ta’minlaydi.

Course- umumiy qoidalar, vaqt cheklovlari va bedgilangan maqsad asosida tashkil etilgan bo‘lib uning tarkibidagi materiallar tizimlashtirilgan xamda tartibga solingan xolda taqdim etiladi. MOOC tarkibidagi “ochiq” atamasi bepul eki shartli bepul degan ma’noni anglatadi. Qoidaga ko‘ra kursda o‘qish yoki amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun mablag‘ talab qilinmaydi. Agar mablag‘ talab etilgan taqdirda xam MOOC kurslari xarajatlari kunduzgi ta’lim xarajatlaridan ancha kam bo‘ladi.

MOOClarning asosiy xususiyatlari:

1. Belgilangan vaqt mobaynida muayyan ta'lim natijalariga erishish va ularni ob'ektiv baholashni ta'minlaydigan mustaqil tugallangan ta'lim mahsuloti
2. Faqat Internet tarmog'i orqali elektron ta'lim shaklida amalga oshiriladi
3. Sinxron aloqa shakllari mavjud emas
4. Nazorat vositalarini to'liq avtomatlashtirish, sizga yordam beradigan xarajatlarni oshirmasdan keng miqyosda o'qitilganlarning sonini o'lchash imkonini beradi

ISSN 3030-3907

5. Boshlang'ich ta'lim darajasiga nisbatan qat'iy talablar qo`ymagah holda keng doiradagi manfaatdor tomonlar bilimlarni o'zlashtirishlari uchun foydalanish mumkin

MOOClarning asosiy xususiyatlari quyidagicha izoxlash mumkin :

1. Interaktivlik
2. Modulli tuzilishi
3. Mavjudligi
4.Moslashuvchan
5. Ommaviyligi.

Oydinlashtirilgan ta’lim berish jarayonining ta’minlanishi, uzluksiz monitoring imkoniyati, o‘quv jarayonlarining to‘g‘ri nazorat qilinishi va boshqarilishini, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va o‘quv yurtlari tomonidan o‘qituvchi va talabalarning bilim saviyasini tekshirilishini (ta’lim jarayonida talaba va o‘qituvchilarning harakatlarini nazorat qilish, bunga talabaning faolligi va o‘qituvchi ishining unumliligi, talabalarning attestatsiyadan o‘tkazish amallari ham kiradi) ta’minlanishiga olib keladi. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va qayta o‘qish tizimlarining samaradorligini oshirishga erishiladi.

O‘qitish turining egiluvchanligi. Qulay vaqtda shug‘ullanish mumkinligi, qulay joyda va qulay tezlikda o‘quvchi-talabalarning bilim qabul qilishining turli shakllarini qo‘llash mumkinligi, ular tomonidan modellashtirish va ko‘rgazmali vositalarni joyida qo‘llash, axborot va bilimlarni yetkazishda ko‘rgazmalilik, tasavvurlar hamda o‘qitishning o‘yin shakllaridan foydalanish kiradi.

O‘qituvchining o‘rni va xilma-xil imkoniyatlarni ko‘tarish. O‘qituvchining o‘quvchi-talabaga nisbatan shaxsiy yondashuvining turli shakllarini qo‘llash. Har bir o‘quvchi-talabaning bilim darajasi va tayyorgarligiga hamda uning qobiliyatiga mos ravishda shaxsiy yondashishni qo‘llash mumkin. *O‘quvchi-talabaning bilim va tadqiqot motivlari hamda stimullarini rivojlantirish*. O‘quvchi-talabaning o‘qituvchi (pedagog)ga va o‘zaro muloqotdagi ishonchsizlik hissiyotidagi psixologik to‘siqlarni yo‘qotish, talabaning intellektual va ilmiy imkoniyatlarini, o‘zini o‘zi tashkillashtirishni rivojlantiradi.

O‘quvchi-talabaning shaxsiy faoliyati va o‘qitishni birga olib borish. Tejamlilik o‘qitish jarayonidagi uzluksizlikni ta’minlaydi. O‘quv xonalaridan foydalanishi, yo‘l xarajatlari va taklif qilingan malakali o‘qituvchi (pedagog)lar mehnatiga haq to‘lash. Ular o‘z bilimlarini masofadan o‘qitish shaklida uzatishlari mumkin. Sog‘lig‘i, ijtimoiy va moddiy ta’minlanganligidan qat’iy nazar bilim olishning keng imkoniyatlari yaratilib, ijtimoiy tenglik yuzaga keladi.

O‘qitish doirasida musobaqa muhitini yaratish.. Masofadan o‘qitish texnologiyasi – jamiyatni axborotlashtirishning umumiy oqimi va yo‘llari bilan

ISSN 3030-3907

jipslashgan bo‘lib, masofaviy o‘qitishning texnik vositalarini axborotlashtirish tizimlari va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini avtomatlashtirish tizimlarini zamonaviy axborotlashtirish texnologiyasi asosida birgalikni ta’minlaydi.


Zamonaviy mutaxassisliklar. Xozirgi texnika asrida mehnat bozori jadal suratlar bilan rivojlanmoqda. Ma’lumki asrlar davomida shakllangan va davr sinovidan o‘tgan mutaxasisliklarga ega bo‘lish uchun yillar davomida oliy ta’lim muassasalarida thxsil olish talab qilinar edi. Onlayn rejimda tashkil etilgan kurslar esa mahnat bozorida kechayotgan o‘zgarishlarni yashin tezligida ilg‘ab olmoqda va aynan bugungi kun talabiga javob beruvchi mutaxassisni tayyorlash uchun o‘z o‘quv dvsturlarini taqdim etib kelmoqda. Onlayn ta’lim dunyoning eng nufuzli universitetlarning yuqori malakali va tajribali o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi.Masofaviy kursning xar bir o‘quvchisi kurs o‘qituvchisi bilan shaxsan suxbatlashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zamonaviy texnika vositalari yordamida materiallar optimallashtiriladi xamda oson va qulay shaklda taqdim etiladi. Qisqa vidiolar uzun maruzalarga nisbatan o‘quvchilar tmonidan yaxshi o‘zlashtirilganligi sababli, barcha mavzular kichik vidiolardan tashkil topgan. Matnli ma’ruzalar esa o‘zlashtirilishi oson bo‘dgan kiska bo‘laklarga bo‘linadi. Eng muximi metodik adabiyotlar sotib olish uchun mablag‘ sarflanmaydi. Masofadan o‘qitish xilma xil materiallardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. MOOC masofaviy o‘qitish metodi faqatgina videolar bilan cheklanib qolmaydi, balki ulardan turli manbalarga yo‘naltiruvchi qo‘shimcha murojaatlar, matnli xujjatlar, audiofayllar, ijtimoiy tarmoqlar va forumlardagi muxokamalar xam joy olgan. Bunday tizim materialni o‘zlashtirish darajasini oshiribgina qolmay, balki o‘quvchilarning ma’lumot oqimini boshkarish va zarur bilimlarni mustaqil ravishda olish qobiliyatini xam rivojlantiradi. Xar bir kurs vaqt bilan chegaralangan bo‘lib, o‘quvchi o‘ziga qulay dars jadvali tuzib olishi mumkin. Videodarslarni keyinroq ko‘rishi yoki tushunmay qolsa qayta ko‘rish imkoniyati mavjud. Yuqorida sanab o‘tganimiz masofaviy onlay kurslarning foydalanish usullari afzalliklari edi.

Zamonaviy ta’lim tizimi hozirgi davrning barcha o‘ta jiddiy talablariga javob bera olmayotganligini juda ko‘pchilik olimlar va mutahassislar tomonidan tan olinayapti. Ushbu holatni tubdan o‘zgartirishning asosiy yo‘llaridan biri – ta’lim tizimiga zamonaviy texnologik rivojlanishning eng yangi dasturiy-texnik vositalarini keng miqyosda jalb qilishdir. Bunday vositalardan biri – insonlarning ishlab chiqarishdan va boshqa kundalik yumushlardan ajralmagan holda to‘laqonli ta’lim olishiga imkon beradigan raqamli platformalardagi ochiq masofaviy ta’lim tizimidir (MOOC – massive open online cources – ommaviy ochiq onlayn ta’lim tizimlari). Keling siz bilan masofaviy ta`limda foydalaniladigan ochiq o`qitish platformalarini ayrimlarini ko`rib chiqamiz. Bundan bir necha yillar oldin, ya’ni,

ISSN 3030-3907

2012 yilning kuzlarida Stenford universitetining ikki professori Sebastyan Trun va Piter Norvig internetda barcha istovchilar uchun sun'iy intellekt bo'yicha ma'ruzalar tinglashni taklif qilishdi. Bu ma'ruzalar o'z tarkibiga barcha kerakli materiallarni, testlarni va yakuniy imtihonlarni qamrab olgan edi. Mashg'ulotlar esa faqat on-line ko'rinishida tashkil etilgan edi. Ma'ruzachilar eng ko'pi bilan 2-3 ming talaba ushbu mashg'ulotlarga qatnashishini rejalashtirgan bo'lsalarda, semester boshida unga dunyoning 200 ta mamlakatidan 160 ming kishi yozilib bo'lgan edi. Bunga o'xshash masofaviy ta'lim tizimlari borgan sari 192 murakkablashib va sifati oshib borayotganini ta'kidlamasdan iloji yo'q. Kun sayin yanada ko'proq tajribali o'qituvchilar va professorlar o'z ma'ruzalarini boshqalar bemalol foydalanishi uchun YouTube va iTunes tizimlariga yozib qo'yayaptilar. Ularning ba'zilari, masalan, siyosiy falsafa bo'yicha Garvard professori Maykl Sendel o'zining ma'naviyat haqidagi «Justice» deb nomlangan kursini haddan tashqari ommalashib ketgani tufayli internetdagi eng mashhur shahslardan biri bo'lib qoldi. Har yili dunyo miqyosidagi eng yaxshi bilimlarni to'plash va ularni internet orqali barcha foydalanishi uchun tarmoqqa joylashtirish bo'yicha yangidan-yangi ishlar qilinib, filantroplar va venchur tadbirkorlar buning uchun o'nlab million dollar mablag'lar ajratayaptilar. Ularning birgalikdagi say'iharakatlari dunyoning istalgan joyida yashovchi insonlarning zamonaviy va sifatli ta'lim olishlariga sabab bo'lishi kuzatilayapti. Professorlar Sebast'yan Trun va Piter Norvig larning ta'kidlashlaricha, 2050 yilga kelib, jahon miqyosida bor-yo'g'i o'ntagina katta zamonaviy universitetlar qolib, ularda bir vaqtning o'zida millionlab talabalar o'qitilishiga erishiladi. Tabiiyki, bunday biznes unga jalb etilganlarning barchasi uchun ham foydali, ham raqamli iqtisodiyot uchun kadrlar etishtirishga katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunga misol sifatida hozirgi paytda real ishlab turgan minglab ta'lim tizimlari orasidan quyidagilarni keltirishimiz mumkin: Khan Academy –2008 yilda moliyaviy analitik Salman Xan tomonidan asos solingan notijorat tashkiloti bo'lib, u matematika, fizika, biologiya, astronomiya va boshqa tabiiy fanlar bo'yicha turli-tuman topshiriqlar va videomateriallarning raqamli olamdagi o'ziga hos ombori hisoblanadi. Ushbu akademiyaning materiallari turli xil murakkablikda bo'lib, asosan o'rta maktab talabalari uchun mo'ljallanilgan.


ISSN 3030-3907




Shuning uchun undagi materiallardan AQSH dagi o‘nlab o‘quv muassasalarida doimiy asosda foydalaniladi. Khan Academy raqamli ta’lim tizimi o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirishga imkon beradi, ya’ni, o‘quvchilar uylarida 193 internet orqali ma’ruzalarni eshitib oladilar va darsga kelganlarida o‘qituvchi yordamida uy vazifalarini bajaradilar. O‘qituchi esa istalgan paytda o‘quvchi qanday materiallarni o‘zlashtirgan yoki qaysi materiallarni o‘zlashtirish unga qiyinchilik tug‘dirayotganini tekshira oladi. Xozirgi paytda bu akademiyaga Bill & Melinda Gates Foundationva Googlekompaniyalari moliyaviy yordam ko‘rsatmoqdalar. Ushbu akademiya bilan to‘liqroq ravishda www.khanacademy.org sayti orqali tanishib chiqishingiz mumkin. Maktablar uchun akademiya tomonidan ishlab chiqilgan materiallar jumlasiga quyidagi o‘quv video materiallarni misol sifatida keltirishimiz mumkin:

- KIPP School Oakland Pilot Video
- Summit School Pilot Video
- Marlborough School Pilot Video
- Oakland Unity Pilot Video Khan Academy resurslarini quyidagi internet manzillari orqali ko‘rib chiqish va ular bilan yaqindan tanishish mumkin:
- YouTube: www.youtube.com/khanacademy
- Twitter: http://twitter.com/#!/khanacademy
- Facebook: www.facebook.com/khanacademy
- GooglePlus:https://plus.google.com/109050230672993035916/about
- Translations: www.youtube.com/khanacademylanguages
- Talks and interviews (videos)

ISSN 3030-3907





frequently asked question(FAQ)

To‘g‘ri masofaviy ta’limda xam kamchiliklar kuzatiladi. Qanday o‘qitish matodikasi bo‘lmasin barchasi o‘quvchilarga bilim va ko‘nikmalarni tug‘ri, tushunarli sodda kerakli qilib etkaza olish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Mirziyonomiks. B.Hamzayev. “Mirziyonomiks” T.,2021y
2. R.H.Ayubov “Raqamli iqtisodiyot asoslari” T.,2020y
3. S.S.Gulyamov “Raqamli iqtisodiyot va electron tijorat asoslari” T.,2020y
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni,23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son

ISSN 3030-3907

5. Fayziyeva M. R.“Informatika va axborot texnologiyalari”: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik: M. R. Fayziyeva,D. M. Sayfurov. - Toshkent: “Tasvir”, 2020. - 112 b.

ISSN 3030-3907